



## **O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI HOLATI**

**Mamadaliyeva Nodiraxon Abdulxamidovna**

Namangan viloyati Norin tumani 16-maktab psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasida psixologik bilimlarning rivojlanish tarixi va bugungi kundagi axvoli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, institute, rivojlanish, metod.

Dastlabki pedagogik va psixologik fikr markazlari sifatida 1918-yili Toshkent va keyinchalik Chimkent shahrida tashkil qilingan, Pedagogik mo'zey va pedagogik laboratoriya universal o'quv tarbiya muassasasi bo'lib, ta'lim tarbiya bilan bog'liq bo'lgan hamma vazifalarni qamrab oladi. Bu yordam ta'lim metodlari ishlab chiqarilgan, shu yerning o'zida sinalgan va respublikaning boshqa ukuv muassasalariga tarqatilgan. Ishning bunday tashkil qilinganligi tadbiq qilishga imkon bergan. Pedagogik laboratoriya haqida nizomda ancha bu joy pedagogik fikr va ishning markazi bo'lishi lozim. Shuning ychun bir tomondan pedagogik ishning har bir yangilik uqitishdagi laboratoriyada to'plangan boy tajribadan foydalanish imkoniyati berilish kerak, bu imkoniyat bevosita maktablarga berilish kerakdir. Boshqa laboratoriya va kabinetlar bilan bir qatorda pedagogik laboratoriya va pedagogik mo'zeyda eksperimental psixologik laboratoriyani ham mavjud bo'lib, bu yerda turli xil psixologik tajribalar amalga oshirilgan 1919 yili 1 aprelda Kavman Xorvat maorif komissariga xat yullab, davlatning ko'zi ojiz, gung, ruhiy kasal va psixologik taraqqayoti hamda psixikasi muvozanatsiz bolalarni o'z tarbiyasiga olishi zarur va umumligini ta'kidlagan. Xuddi shu maqsadda butun bir maxsus muassasalar tizimini



tashkil etishni taklif etishni. Xorvatning taklifi bir necha yo`nalish bo`yicha diqqatga sazovordir.

Birinchi darajani psixologik laboratoriya, ikkinchi darajani davolash maxsus muassasasi, uchinchi darajani maktablar amalga oshirish ko`zda tutilgan. Turkistondagi muassasalardan biri «o`zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti», xozirgi Kori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1929 yili tashkil qilingan bo`lib, hozirgi kunga kadar bu institut uqitishning pedagogik kontseptsiyalari maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ta`lim-tarbiya nazariyasini yaratuvchi yagona markaz hisoblanadi.

Ushbu institutning faoliyati Bendrikov, Leventuert, Zavarova, Yusupov, Tokanaev, Debenzov, Mirsharipov, Muxiddinov kabi olimlar-ning nomlari bilan chambarchas boglig`. 30 yillarda bu institutda jahon psixologiya faniga katta hissa qushgan olimlardan biri Aleksandr Romanovich Luriya ishlagan. U o`z institut doirasida o`tkazgan tadqiqotlari asosida keyinchalik «Ob istoricheskom razvitie poznavatelnix protsessov» - «Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida» degan asarini nashr qildi. O`zbekistonda psixologiya fanining shakllanishiga katta hissa qo`shgan olimlardan yana biri P.Ivanov hisoblanadi, 1927 yil Samarqanddagi o`zbek pedagogika institutida (pedakademiya) eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qilgan. 1940 yilda u pedagogika institutlari talabalari uchun psixologiyadan birinchi o`quv qullanmasini nashr qilgan. Keyinchalik 1934 yili Samarkand pedagogika institutining o`zbek davlat universitetiga aylantirishi munosabati bilan Ivanov o`z laboratoriyasi bilan Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Universitetiga ko`chib o`tadi. Pedagogika ukuv muassasalarida ilmiy pedagogik potentsialning yetishmasligi tufayli dastlabki psixologiya darslari ustida tarjimonlar yordamida olib borilgan keyinchalik bu tarjimonlariing o`zlari mustaqil ravishda psixologiyadan o`zbek tilida ma`ro`zalar uqiy boshlashgan. Aliaskar Usmonov, Toxiriyxon Askarxujaev, Bayburova, Raxmatova va boshqalar bir bo`lib o`zbek tilida psixologiya o`qituvchilari bo`lishgan Ivanov (1891-1968 yillar) psixologiyadan 75 yildan ortiq ilmiy ishlari nashr qilingan. Uning 1927 yilda nashr qilingan «Umumiy pedagogika»



bo'yicha qisqa ocherk, «maktabshunoslik» tarbiyaning umumiy metoddari 40-yillar va 54-yillarda «Umumiy psixologiya», 62-yilda -«Ta'limning psixologik asoslari» kabi asarlari O'zbekistonda psixologiya fani rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdi.

M.Voxidov tomonidan maktabgacha pedagogika bilim yurtlari uchun, pedagogika institutlari uchun darsliklar yozilgan, oxirgi yillarda Voxidov Petrovskiy tahriri ostidagi «Umumiy psixologiya» darsligi tarjima qilingan va ayni paytda milliy va mintaqaviy hususiyatlarni hisobga olgan holda o'zbek tilida darslik yaratish bilan mashhur bo'di.

Davletshin Gabdulgalimovich 1923 yilda tug'ilgan. Toshkent Davlat universitetining psixologiya kafedra mudiri psixologiya fanlari doktori, 1957 yilda «5» va «7» sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarini shakllanishi mavzusida 1971 yil o'quvchilarni texnik qobiliyatlar psixologiyasi mavzusida doktorlik disertatsiyasini ximoya qilgan. 1968 yildan beri psixologiya kafedrasida mudirlik qilmoqda, M.Davletshin rahbarligida uning bevosita maslahatlari yordamida O'zbekistonda 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik ishini himoya qilgan. Bundan tashqari har xil muammolar bo'yicha 25 ta ish himoya qilindi. O'zbekistonga psixologiya fanini, ya'ni psixologiya tushunchasini olib kirib, tulaligicha ochib berdi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham psixologiya tarmoqdari kuchayib unga e'tibor berilmoqda. Hozirgi yetishib chiqqan barcha olimlarimiz O'zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlari psixologiyasi kabi yuqori cho'qqiga chikishida katta hissa qo'shib, intilmoqdalar. Odamlar ongiga esa milliy psixologiya asosida, ya'ni milliylik ro'hida tarbiyalab, ularni ongiga psixologiyani sindirmoqdalar. O'zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgarigidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni uqitish muassasa tayyorlov qurollar va markazlar ochilib kishilar ongiga yetib bormoqda. Bundan tashqari psixologiya tarmoqlari bo'yicha turli xil muammolarni yechishda asosiy rol uynaydi. Bu fanni rivojlanishida o'zbek psixologiyasi, ya'ni B.Qodirov, V.Karimova, M.Voxidov, M.Davletshin va boshqa olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda psixologiya fani ham o'z tarmoqlarini rivojlantirmoqda. Xulosa qilib aytganda psixologiya fanini rivoji odamlar hayotiga ya'ni yashash tarziga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.